



ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI
O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

Sharipova Sitora Xaydarovna,

Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta'lism texnologiyasining oliy ta'limda qo'llanilishi va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyaning afzallikkleri, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tayanch atamalar: texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, uzlusiz ta'lism, ijodiy metod, ta'lism tamoyillari, motivatsiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda ta'limga barcha bosqichlarida islohotlar amalga oshirilib, bugungi kunda ularning amaliy natijalari sarhisob qilinayotganligi va bu borada yangi sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyat mavjudligi tobora asosiy vazifa bo'lib bormoqda.

Uzlusiz ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lism xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish hozirgi davr ta'lism texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalar ko'lagini bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lism tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan¹.

Oliy ta'lism oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologik ta'minoti muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Ilmiy-texnika taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiramoqda, balki u madaniyat, ta'lism sohalariga ham kirib bormoqda. Texnologizatsiyalash -bu obyektiv jarayon bo'lib, ta'lism evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davridir.

Ta'lism va o'qitish sifatini yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro standartlar asosida oliy ta'lism muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirishni talab etadi. Shuning uchun oliy ta'lismni isloh qilishda texnologiya ta'lism amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limga ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy yevropada ta'lismni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J.Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari o'sha davrning mashhur olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktiklarga taalluqlidir.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. 20.04.2017 yildagi Qarori bilan -2017-2021 yillarda Oliy ta'lism tizimini kompleks rivojlantirish dasturidan - Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroridan

² Azizxo'jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - TOSHKENT: "Adabiyot" nashriyoti, 2006. 65-bet

Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

Texnologiya atamasi keyinchalik pedagogika faniga kirib kelib, pedagogik texnologiyalar ostida ta'lim berishning o'ziga xos metodlari, usullari va vositalari shakllandiki bu fan taraqqiyotida muhim ixtiroga aylandi. Pedagogik texnologiya atamasiga mashhur didaklar va olim pedagoglar qator ta'riflar berishdi va bu atama fanning o'zagiga aylana bordi.

"Pedagogik texnologiya — bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ulaming birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir" (YuNESKO)¹.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarini ko'zda tutadi.

Oliy ta'limda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimdir. Bu tizimda yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda bo'lajak o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lajak pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tanqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Bo'lajak pedagogning texnologik tayyorgarligi, oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalananiladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar; ***muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualiflik texnologiyalaridir.***

Yuqorida qayt etilgan texnologiyalardan biri **muammoli o'qitish texnologiyasi**, bugungi kunda talaba o'quvchilarini mustaqil o'qishga, firklashga, vaziyatlani to'g'ri baholay olishgaga va yakuniy to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan biri sanaladi. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi, uning tafakkurini, moyilligini va layoqatlarini aniqlash o'quv maqsadlarini bajarishga to'liq mos keladi.

Hozirgi kunda chop etilayotgan pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bu fikrlarning, nisbatan to'liqroq va aniqroq ta'rifi M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan, o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlarini qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Oliy ta'limning barcha yo'nalishlarida, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rgatishda samarali qo'llanilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bu albatta keng tarmoqli fanlar sohasi bo'lib, talabalarni bugungi siyosiy va ijtimoiy hayotni o'rganib to'g'ri xulosa chiqarishlariga xizmat qiladi. Gumanitar fanlar sohasi quyidagi fanlarni o'z ichiga oladiki, bu fanlar albatta oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarning bugungi innovatsion tamoyillar asosida rivojlanayotgan jamiyatda o'z o'rinalarini topishlarida muhim bilimlar poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Shuni inobatga olib, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham bejiz emas. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"².

Shunday ekan, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish oliy ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligidagi, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

¹ Azizzxo'jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - TOSHKENT: "Adabiyot" nashriyoti, 2006. 66-bet

² Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv jarayonlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, maqsadlarini, funktsiyalarini, savollar va bahsli munozaralar orqali hal qilish yangi bilimlarni o'zlashtirish tizimi orqali ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Bu esa, bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usullarini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlar, shaxsiy rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlar hamda didaktik tamoyil — muammolilikka tayanadi.

Bugungi kunda muammoli o'qitish texnologiyasi uzlusiz ta'limning barcha jabhalarida qo'llanilishi, ayniqsa oliy ta'limda bu kabi texnologiyalarni qo'llash bo'lajak pedagog kadrlarni raqabatbardosh mehnat bozorida faol, mustaqil fikrashga o'rgatish, kasbiy kompetensiyalarning takomillashishi uchun muhim zamin hozirlaydi. Oliy ta'lim yo'nalişlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, bo'lajak ijtimoiy soha vakillari, psixolog va pedagoglarning fikrashi muammoli vaziyat, kutilmagan natijalar hosili bilan bog'liq bo'lisdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Muammoli o'qitish sharoitida talabaning psixologik, emotsiyal va hissiy holati undagi fikrash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zaruriyati yaratiladi. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikrash yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlarini maxsus taqazo qilgan aqliy faollik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat qilish usullari yotadi. Bu aqliy va amaliy harakat usullari yordamida talabalarda muhim aniq va mukammal bilimlarni shakllanishiga sabab bo'ladi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talabandan jiddiy izlanishni talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtida ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar, izohlar o'rtasidagi ziddiyatlar majmuidir. Bu kabi ziddiyatli vaziyatlar talabalarda bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- *talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;*
- *vazifalarini bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.*

Muammoli vaziyatdan chiqqa olish, hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, bilim natijasini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan bo'ladi. Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarini tushunishga, unga kirishish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. O'z o'rinda izchillik yorqin ko'rindi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ulami topish yangi bilimlami shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar natijasi (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib kutilayotgan natija yoki yechimni yo'lini izlashga tushadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy

Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o‘zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: **gnoseologik, metodik va o‘quv.** Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyusiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo‘l qo‘yiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o‘quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy mushohidalash, tahlil qilish va o‘z xatolarini to‘g‘rilash ko‘nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o‘quv predmeti va fanga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi: o‘rganilayotgan fan mazmuni o‘rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig‘indisi sifatida emas, balki g‘oyalar va odamlarning tarixiy tasavvuri tarzida, ijtimoiy mакtab va yo‘nalishlar kurashi tarzida, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o‘quv xatolari bilan o‘zarbo‘lganligi: o‘rganish xatolari ko‘p hollarda - o‘qitish xatolari natijasidir. O‘quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhanadi va keyinchalik kuchli ta’sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi.

Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko‘p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta’sir etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo‘lishi mumkin¹.

Ta’lim jarayonida muammoli metodni qo’llashda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O‘qituvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quv materialiga oid tafovutlarni taklif etish;
- muammoli vaziyatlarni tuzish;
- muammoning mavjudligini aniqlab berish;
- muammoli topshiriqlarni loyihalash

O‘quvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quv materiali mohiyatining anglab yetilish;
- muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash;
- mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash;
- muammoli masalaga o‘tkazish;
- topshiriqni natijasini bajarish

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilish usuli o‘quv muammosi bo‘la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o‘quv muammosi hosil bo‘la olmaydi.

Talabalarning muammoli o‘qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg‘ulotda muammoni ifodalab berishidan iborat bo‘ladi, ya’ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi mohiyatini so‘z bilan ifodalab beradi, so‘ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg‘a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlashga harakat qiladi. Izlanish muammo yoki vazifa to‘liq bajarilganidan so‘ng tugallanadi, ta’lim maqsadlari va vazifalari shu usul orqali echiladi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat — o‘quv muammosi — o‘quv muammosini yechish uchun izlanishlar majmui — muammoning yechilishi.

Muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o‘qituvchi uning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo‘lishi va ketma-ketlikdagi ilmiy izlanishlarini aniq tasniflab olganligi talab qilinadi.

Muammoli o‘qitish bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirish, atrof muhitga o‘zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.


Muammoli o‘qitishga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi unda qo‘llaniladigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik,

¹ Olimov SH.SH Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat o‘quv qo‘llanmasi - Buxoro: 2019. – 19 b

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli bayon qilish asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi va afzalliklari haqida quyidagi jadvalda muammoli talimning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan¹.



Biz shu joyda ijodiy metod haqida fikr yuritamiz. **Ijodiy metod**- ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda talaba o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zları ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zi mustaqil gipotezani yechishga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadi. Shu tariqa ijod metodini qo'llash bilan talabalar faoliyati, ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi va ularni ushbu jarayonda boshqarib boradi. Vazifalar esa ularning mustaqil o'quv bilish xatti-harakatlarining to'la davriy stiklini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar yig'iladi yoki yechilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi, hamda yechimlar tekshirib ko'rildi va yangi bilimlar hosili aniqlanadi.

Oliy ta'lim talabalarning ijodiy ishlari shakllari turlicha va rang-barangdir; Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar yigish, analiz qilish, sintezlash, kerakli ma'lumotlarni arxivlardan o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallarni tayyorlash va boshqalardan iborat.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi. Bunda talabalar o'quv mummosining qo'yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy izlanishlarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, talabalarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatishi va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to'ulardan aksariyati yechilgunga qadar o'zgarib turishi kuzatiladi.

Talabalar suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning yechimini topadi.

¹ www.aim.uz

Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta ma'suliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rishi lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodisaning mohiyatini o'ylashga majbur etsin hamda suhbat yo'nalishi va gipotezaning ehtimol ko'rilgan variantlari va uning yechilish yo'llarini, uni o'rganishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bashorat qila olsin. O'qituvchi talabalarning umuman muammoni yechish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtida sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim.

Ijodiy suhbat davomida tayyorgarlik ko'rmagan, o'zaro bahs va munozlarda, shuningdek, darsga qatnashishni xohlamaydigan talabalarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday talabalarning hulq-atvorlarini ko'zda tutgan holda, ularni faollashtirish maqsadida oldindan savollar tayyorlab qo'yish darkor, shunki ta'lim jarayoni barcha ta'lim ishtiokchilarini qamrab olishga qaratilgan bo'lib ta'lim samaradorligini belgilashning eng asosiy tamoyillarini tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, ta'lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda talabalar faoliyatini jadallashtirishga va shu bilan birgalikda ularni o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni yechishga va u haqida ularning umumiylarini ma'lum va noma'lum tomonlarini yoritish bilan birgalikda mukammal bilimlarini mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda muammoli o'qitish texnologiyasi-o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni har tomonlama ochib berishda talabalarning ijodiy, tanqidiy yondashuvini talab qiladi va bilimlarini yanada keng qamrovli mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y. 104 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. 20.04.2017 yildagi Qarori bilan -2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturidan - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. www.lex.uz
3. Azizzo'jaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent 2006 y. 159 bet
4. Olimov SH.SH Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Buxoro 2019 y. 248 bet
5. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2006.
6. Sharipova S. H. Technology of Problem Learning as a Tool for the Development of Students' Independent Work //Miasto Przyszlosci. – 2022. – T. 30. – C. 129-130.
7. Sharipova S. Mastery of the teacher-garant of stable development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 269-272.
8. Sharipova S. Application of problem educational technologies in higher education system //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 193-197.
9. Шарипова С. Х. Технология проблемного обучения как средство и путь саморазвития студентов //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 12. – с. 112-116.
10. [www. aim.uz](http://www.aim.uz)

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

M.A.Jumayeva, BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI.....	62
Sharapov Shuxrat Shokirovich. TA'LIM OLISH HUQUQI O'ZBEKISTONDA UMRBOD TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	65
Katayeva Saodat Abduraxim qizi, KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI VA UNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	67
M.A.Jumayeva, Asatova Mohichehra, BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN PROFESSOR O'QITUVCHILARNING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATI	69
Nekiyeva Umida Nematovna, BO'LAJAK O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI	71
Ismailov Murodulla Kaxramonovich. BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARIDA SANOPEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI	75
Rasulova Zilola Durdimurotovna. INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....	77
Nematova Nigina Nabiyevna, BO'LAJAK ZAMOVIY O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	80
Zilola Tosheva, ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI.....	83
Boboyev Maqsud Mahmudovich. ASSESSMENT FOR STUDENTS 21 st CENTURY SKILLS	86
Sharipova Sitora Xaydarovna, OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	88
Samiyeva Shakhnoz Xikmatovna. IMPORTANT WAYS TO USE NEUROPEDAGOGICAL KNOWLEDGE IN TEACHING.....	94
Имамкулов Расул Рахманович, ПРОБЛЕМЫ ТЕХНОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА	96
N.B.Ismatova, Sh.Sh.Sharopov. BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYORLASHDA KOMPETENTLIK YONDOSHUVNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH	100
Лукмонова Саломат Гафуровна. ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.....	104
Yu.Z.Saidova. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MA'NAVIYAT SOATLARI"NI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI	107
N.B.Ismatova, TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR....	109
Норбаев Бахтиёр. CONDITIONS FOR EFFECTIVE SOCIO-EDUCATIONAL INTEGRATION OF STUDENTS INTO A FOREIGN LANGUAGE ENVIRONMENT	115
Shabon Muxamadovna Farmonova. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.....	117
Русакова Н.Н. ОПЫТ ТРАНСПОЛЯЦИИ СИСТЕМЫ РАЗВИВАЮЩИХ СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗЛИЧНЫЕ УРОВНИ И ТИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ	120
Хусенова Фарангис, Султанова Р.М. ВЛАДЕНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКОЙ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ИНОЯЗЫЧНОМ ДИДАКТИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	122
Юнусова Раъно Гайбуллаевна. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ	124